O’zbek tili me’yorlari (punktuatsiya) kitobi taqdimoti o’tkazildi

Joriy yil 4-mart kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, f.f.d, professor N.Mahmudov, f.f.n., dotsent Abduvahob Madvaliyev, f.f.n., dotsent N.Mahkamov hamda PhD D.Andaniyozovalar tomonidan tuzilgan, f.f.d., professor Y.Odilov muharrirligi ostida nashr etilgan “O’zbek tili me’yorlari (punktuatsiya)” kitobi taqdimoti o’tkazildi.

Taqdimotda Davlat tilini rivojlantirish departamenti vakillari, kitob mualliflari hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar va davlat tilini rivojlantirish masalalari bo’yicha maslahatchilari ishtirok etdi.

Mazkur kitobda zamonaviy o’zbek punktuatsiyasi me’yorlari, tinish belgilarining qo’llanishi kabi turli masalalar haqida fikr yuritiladi. Unda punktuatsiyaning maqsadi va nazariy asoslari, o’zbek punktuatsiyasi tarixi, asoslari, tamoyillari hamda asosiy qoidalari atroflicha izohlangan.